

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Tarix va arxeologiya” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Ikkinchi jahon urushiga safarbar etilgan o‘zbekistonliklarning elektron bazasini yaratish (1938-1945 yy.) 	Tadqiqotning shakli: Ikkinchi jahon urushiga safarbar etilgan o‘zbekistonliklarning elektron bazasini yaratish (1938-1945 yy.) bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - urush yillarida harbiy komissarliklar tomonidan yuritilgan chaqiriluvchilarning alifbo kitoblari asosida o‘zbekistonlik urush qatnashchilarining to‘liq ro‘yxati elektron ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi; - elektron ma’lumotlar bazasi bo‘yicha viloyatlar va tumanlar kesimida, alifbo tartibida va ilmiy o‘rganishlar asosida “Vatan fidoyilari” xotira kitobi tayyorlanadi; - ma’lumotlar muzeylar, arxivlar, oilalarda saqlanayotgan hujjatlar, suratlar va maqolalar (ro‘yxat, havolalar) bilan to‘ldirib boriladi; - arxiv hujjatlari hamda og‘zaki tarix usulini qo‘llagan holda urush qatnashchilari xotiralari to‘planadi va kitob chop etiladi va ma’lumotlar bazasiga kiritiladi; - O‘zbekistonliklarning Ikkinchi jahon urushidagi ishtirokiga oid yangi tarixiy ma’lumotlar aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritiladi (ilmiy maqolalar). Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Tadqiqot natijalari Mudofaa vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovlardan o‘tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.
Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari		

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish\ muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*